11. Гаппарова Н.И. С.Халбаева **“**СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К СИНТЕЗУ ЗВУКА, ИЗОБРАЖЕНИЯ И АНИМАЦИИ В МЕДИАИСКУССТВЕ**”** “YANGI RENESSANSDA ILM-FAN TARAQQIYOT” “Raqamli davrda tasvir, animatsiya va ovozning uyg‘unlashuvi: yangi imkoniyatlar va istiqbollar” Respublika ilmiy-amaliy конференция, Vol. 1 No. 3 (2025).

REZYUME. Ovoz rejissorlligi badiiy ijodning bir turi sifatida ushbu maqolada hal qilinadigan vazifalar, materialning o'ziga xos xususiyatlari, badiiy tomoshani ishlab chiqarish uchun ekspressiv imkoniyatlar va texnologiyalarga qarab o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan ajoyib san'at ovoz rejissorsligining roli va ahamiyati ko'rib chiqiladi. Muallif spektakl, film, televizion va multimedia dasturlarini yaratish jarayoniga va uning asosiy bosqichlariga alohida e'tibor qaratadi. Ushbu asar ijodiy dizaynni amalga oshirish va tovush tuzilishini moddiylashtirishning muhim jihatlarini aks ettiradi. O'zining tajribasi va faoliyatiga asoslanib, muallif ekran ijodida ovoz bilan ishlashning zarur bosqichlarini, shuningdek, ijodiy g'oyani amalga oshirishda ovoz muhandisi bilishi va hisobga olishi kerak bo'lgan turli xil muhim jihatlar majmuasini aks ettiradi.

РЕЗЮМЕ. В данной статье рассматривается роль и значение звукорежиссуры зрелищных искусств, которая имеет свои особенности в зависимости от решаемых задач, специфики материала, выразительных возможностей и технологии производства художественного зрелища. Особое внимание автор уделяет процессу создания звукоряда спектакля, фильма, телевизионной и мультимедиа-программы и его основным этапам. В данной работе отражены важные аспекты реализации творческого замысла и материализации звуковой структуры. Основываясь на свой опыт и деятельность, автор отражает необходимые этапы работы со звуком в экранном творчестве, а также комплекс разнообразных важных аспектов, которые звукорежиссёр должен знать и учитывать при воплощении творческого замысла.

SUMMARY. This article examines the role and importance of sound engineering of entertainment arts, which has its own characteristics depending on the tasks being solved, the specifics of the material, expressive capabilities and production technology of an artistic spectacle. The author pays special attention to the process of creating the sound of a performance, film, television and multimedia program and its main stages. This work reflects important aspects of the realization of the creative idea and the materialization of the sound structure. Based on his experience and activities, the author reflects the necessary stages of working with sound in screen art, as well as a complex of various important aspects that a sound engineer should know and take into account when implementing a creative idea.

МЕҲРИБОН УСТОЗ ЭДИ

Ҳамидова Шоира Сотимбоевна – *профессор в.в.б.*
Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти

Таянч сўзлар. театр, актёрлик санъати, режиссёрлик, спектакль, саҳна нутқи, телевидение, радио, профессор Абдураҳим Сайфиддинов.

Ключевые слова. театр, актёрское искусство, режиссура, спектакль, сценическая речь, телевидение, радио, профессор Абдурахим Сайфиддинов.

Key words. theatre, acting, directing, performance, stage speech, television, radio, Professor Abdurahim Sayfiddinov.

O‘zbekistonda teatr mutaxasislarini yetkazish sohasida boy maktab yaratilgan. Bu soha rivojiga muhim hissa qo‘shgan ustozlardan biri O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, professor Abdurahmon Sayfiddinov edi. Uni hamkasb do‘stlari va shogirdlari oddiygina qilib Rahima aka deb atardilar.

Bundan qiriq yil avval men Xamza nomli akademik drama teatridan (hozirgi O‘zbek Milliy akademik drama teatri) O‘zbekiston davlat san’at institutiga o‘qituvchi sifatida

kelib o‘z faoliyatimni shu ustoz bilan bir kursda boshlaganligimdan doim faxrlanib yuraman. Rahim akaning o‘z kasbiga bo‘lgan e’tiqodi, o‘ziga ham, talabalariga ham g‘oyatda talabchanlik bilan munosabatda bo‘lishi biz yosh o‘qituvchilr uchun na’muna edi. Teatr pedagogikasi aktyorlik kasbidan farqli o‘laroq murakkab jarayon ekanligini aynan Rahim aka darslari orqali his qila boshlaganman. Rahim aka Dastlab domla 1944 yili Yosh tomoshabinlar teatriga qo‘shimcha ijodiy kuch sifatida aktyor bo‘lib ishga kirgan. Spektaklda rollar ijro etish bilan birga teatr studiyasida taxsil olgan. San’at haqidagi ilk bilimlarni Javod Obidov, Ibrohim Ahmedov kabi taniqli va mohir rejissyorlardan olgan edi. 1947 yili teatrning tavsiyasi bilan Toshkent davlat teatr va rassomchilik institutining aktyorlik bo‘limiga o‘qishga keladi. Institutni tugatgach, 1952 yildan shu oliy dargohda avval sahna nutqi, keyin aktyorlik mahorati bo‘yicha dars bera boshlaydi. Aktyorlik kasbiy ta’limi bo‘yicha atoqli teatr arbobi, rejissyor Toshxo‘ja Xo‘jayev bilan bir kursda hamkorlikda faoliyat ko‘rsatadi. Aynan T.Xo‘jayevning ta’siri uning teatr pedagogi sifatida shakillanishida muhim axamiyatga ega bo‘ldi.

Talabalarning bitirish chog‘ida ishlaydigan diplom spektakllar bo‘lg‘usi sahna ijodkorlarining individual ijodiy qiyofalarini ochishga qaratilgan ijodiy ish hisoblanadi. Shu ma’noda ustoz T.Xo‘jayev bilan birga yaratilgan bir qator diplom spektakllar A.Sayfiddinov faoliyatida chuqur iz qoldirgan. Xususan, Nikolay Ostrovskiyning “Sepsiz qiz”, Anton Pavlovich Chexovning “Vanya tog‘a”, Fridrix Shillerning “Makr va muhabbat” diplom spektakllari ustidagi ijodiy ishlar A.Sayfiddinovda talabalar layoqatini ochish usullarini o‘zlashtirishda katta ahamiyat kasb etdi. Ustoz teatrnining kuchini yanada chuqurroq angladi. Teatrning kuchini shoirlar, dramaturglar, aktyorlar, rejissyorlar, mashshoqlar, texnik xodimlar, libos ustalarining ijodiy ishida deb bildi va bular bir butun jamoa sifatidagi san’atkorlar ekanini targ‘ib qildi. “Teatr san’ati san’atning boshqa turlaridan bir yo‘la foydalangani bilan baribir aktyorsiz jonsiz bir narsadir. Faqat aktyorgina harakati hamda ijodiy tasavvuri bilan unga hayot baxsh etadi, tomoshabinni hayajonlantirib, uni orqasidan ergashtiradi va o‘zi yashayotgan voqelikka olib kiradi. Shuning uchun ham tomoshabin teatrga rassom tomonidan matoga chizilgan yoki sahnaning o‘zida bino etilgan hashamatli qasrlar, fusunkor bog‘lar, ko‘rkam, kelishgan uylar, ajoyib tabiat manzaralarini, elektrotexnik tomonidan shularning barchasiga tegishli jilo berilishini yoki mohir tikuvchining qo‘lidan chiqqan xushbichim kiyim-kechaklarni ko‘rgani bormaydi. Asosan, aktyorlar ijodi orqali hayotda bo‘lib o‘tgan, bo‘layotgan hamda bo‘lishi mumkin voqealarning qanday jonlantirilganiligini va voqealar ichida harakat qiluvchi obrazlar siymosini ko‘rish, ulardan ma’naviy oziq va estetik zavq olish, hordiq chiqarish uchun boradi” [1.3-4.]. Bu iqtiboslarni keltirib, balki domla shuning uchun ham o‘z hayotini aktyor tarbiyalashga bag‘ishlagandir, degan fikrlar xayoldan o‘tadi. Rahim aka sahna uchun yozilgan asarlarni yaxshi tarjimoni ham edi. Tarjimada ham ilmiy uslubiy, ham badiiy jihatlariga katta e’tibor berar edi. Bo‘lg‘usi aktyorlar bilan ishlashda ham ana shu jihatlarning uyg‘unligiga alohida e’tibor berar edi. Dars jarayonlarida faqat aktyorlik mahorati emas, san’atni tilshunoslik, adabiyotshunoslik bilan bog‘lagan tarzda olib borar edi. Shu ma’noda o‘nga yaqin asarlarni o‘zbek tiliga tarjima qilib diplom spektakliga aylantirdi. Ular orasida Nozim Hikmatning “Unitilgan odam” asari ayniqsa mashhur edi. Bu asar Hamid Olimjon nomidagi Samarqand viloyat musiqali teatrida ham qo‘yildi. Rejissyor Mahkam Muhammedov bilan hamorlikda ishlagan damlari ham bo‘lgan [2]. T.Jumagulovning “Qasos”asari ham Rahim aka tomonidan tarjima qilinib, Buxoro va Xorazm viloyati teatrlarida, Yusuf Azimzodaning “Nasriddinning sarguzashtlari” asari esa Hamza nomli akademik drama teatrida (hozirgi milliy teatr), shuningdek, Andijon, Buxoro, Xorazm teatrlarida sahnalashtirildi. A.Sayfiddinov sahna nutqi sohasida ham e’tiborli tadqiqotchilik ishlarini olib bordi. U kishi qoldirgan ilmiy ishlar to‘plamlarida, jurnallarda, gazetalarda nashr etildi. “Og‘zaki nutqning ifoda usullari”, “Aruz sistemasida yozilgan she’riy matn ustida ishlash”, “O‘zbek badiiy o‘qish tarixidan lavhalar” kabi ilmiy maqolalari, “Adabiy asar va ijrochilik mahorati” nomli o‘quv qo‘llanma, Sahna nutqi xrestomatiyasi kabi o‘quv adabiyotlari haligacha o‘qituvchilar va talabalarga qimmatli manba sifatida xizmat qilib kelmoqda. A.Sayfiddinov o‘z darslarini o‘zbek teatri amaliyoti bilan

bog‘liq holda olib bordi. Atoqli rejissyorlar Mannon Uyg‘ur, Yetim Bobojonovlarning so‘z ustida ishlash usullarini, ularning mashhur spektakllarini tahlil qilib yoritib bordi. Og‘zaki nutqda mantiqiy tahlil, nutq, sukut (pauza) intonatsion rango-ranglik kabi muammolar olimning 1966 yil nashr etilgan ”O‘zbek sahna nutqi masalalari” nomli to‘plamida chuqur tahlil etiladi. O‘zbek mumtoz she’rlari, ayniqsa g‘azal janrida yozilgan she’rlarni badiiy o‘qish, ijro etish muammosi dolzarb ekani ta’kidlanadi. A.Sayfuddinov bu sohada bilimini kengaytirish maqsadida Nizomiy nomidagi pedagogika institutida ham tahsil olganini alohida ta’kidlash lozim.

Maqsud Shayxzoda bilan yaqin muloqatda bo‘lib, dramaturgiyaning qonun-qoidalarini ham mukammal o‘rgangan. 1980 yili “Fan” nashiryotida uning “Adabiy asar va ijrochilik mahorati” nomli kitobining chop etilishi aktyorlik mahorati hamda sahna nutqi bo‘yicha dars beruvchi pedagoglarga metodik va ilmiy ko‘mak bo‘ldi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Nazariy va amaliy qiymatiga ko‘ra mazkur o‘quv adabiyoti aktyorlarga hamda rejissyorlarga professional dars berishda chuqur bilimga ega bo‘lishga o‘rgatdi. Ushbu kitobda birinchi bor o‘zbek teatri va teatr pedagogikasining spektal tayyorlashda, shuningdek, aktyor tarbiyasi jarayonida badiiy so‘zni o‘zlashtirish hamda sahnada gavdalantirish borasida to‘plangan tajribalar va nutq san’ati sohasida erishilgan muvaffaqiyatlar chuqur tahlil etib berildi. Ushbu adabiyot bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas. A.Sayfiddinov uz kitobida shunday yozgan edi: “So‘z bilan hatti-harakat, avvalo, so‘zning tabiatiga bog‘liq... Dramatik aktyor oldida avtor tomonidan yaratilgan yozma nutqni og‘zaki nutqqa aylantirish vazifasi turadi. Shuning uchun ham Stanislavskiy sahna nutqini aktyorlik san’atidagi eng murakkab masalalardan biri ekanini e’tirof etgani holda, organik ijod qonuniyatlarini izlashda unga alohida e’tibor bilan qaragan” [3.5]. Darhaqiqat, domlaning so‘zga va nutqqa bo‘lgan talabchanligi o‘ta kuchli bo‘lgan. Chunki, teatrlarda ba’zi aktyorlarning so‘z bilan xatti-harakat qilishi borasidagi muammolar talaygina edi. Mohir ustoz radio va televideniye bilan ham doimiy aloqada bo‘lib kelgan chog‘larida orttirgan tarjibalarini ilmiy asarlarida aks ettirdi.

Adabiy-badiiy eshittirishlarda badiiy asarlarni mahorat bilan o‘qib, sohir ovozi bilan radio tinglovchilari e’tiborini qozona oldi. Bu bilan televideniye va radio rejissyorligi ta’lim yo‘nalishida tahsil oladigan talabalarga ham dars bera oldi. Ularga mikrafon oldida ishlashda nimalarga ahamiyat berish kerakligi borasida samarali saboq berib keldi.

Xulosa o‘rnida aytadigan bo‘lsak, professor A.Sayfiddinov aktyorni shunchaki ijrochi emas, balki yirik ijodkor shaxs sifatida tarbiyalash yo‘llarini izladi. O‘zbekiston halq artistlari Shirin Azizova, To‘g‘on Rejemetov, Dilbar Ismoilova, Murod Rajabov, Afzal Rafiqov, Tohir Saidov singari ko‘plab teatr ijodkorlari aynan Abdurahmon Sayfuddinovning shogirdlari hisoblanadi. A.Sayfiddinov talabalariga mehribon, ularga otalardek munosabatda bo‘ldi. Umrining oxirgi damlarigacha san’at institutining Teatr san’ati fakultetida talabalarga aktyorlik mahorati, sahna nutqi fanlarining nazariy darslarini o‘tib keldi. Yosh pedagoglarga esa fanning sir-asrorlarini o‘rganishda maslahatchi sifatida faoliyat ko‘rsati keldi. O‘zbek san’atining yirik namoyondasi Abdurahim Sayfiddinov xotirasi shu taxlit o‘zbek teatri tarixida muhrlanib qoldi.

Адабиётлар

1. Сайфиддинов А. Адабий асар ва ижрочилик маҳорати. –Тошкент: “Фан”, 1980.
2. *Эслатма:* Ўзбекистонда хизмат кўрсатган санъат арбоби, профессор Маҳкам Муҳаммедов кўп йиллар Ўзбекистон телевидениесида фаолият кўрсатиш билан бирга О.Хўжаев номли Сирдарё вилоят театри ва Республика Ёш томошабинлар театрида бош режиссёр вазифасида ишлаган.
3. Сайфиддинов А. Адабий асар ва ижрочилик маҳорати. –Тошкент: “Фан”, 1980
4. O.Dadamirzayev ZAMONAVIY KINOTEATRLAR VA ULARNING INSON PSIXOLOGIYASIGA TA’SIRI // Oriental Art and Culture. 2023. №5. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/zamonaviy-kinoteatrlar-va-ularning-inson-psixologiyasiga-ta-siri (дата обращения: 07.01.2025).

5. Махмудова Хамида Ахюловна Сохранение национальной идентичности в период глобализации мировых процессов // Вестник науки и образования. 2019. №9-3 (63). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/sohranenie-natsionalnoy-identichnosti-v-period-globalizatsii-mirovyh-protsessov (дата обращения: 07.01.2025).
6. Karayeva F. IJODKOR SHAXSNING BADIIY DID VA AXLOQIY MADANIYATI //Interpretation and researches. – 2023. – Т. 1. – №. 15.
7. Мадримов Q. и др. ИЖОДКОР ТАРБИЯСИДА ЭТИКА //Oriental Art and Culture. – 2023. – Т. 4. – №. 2. – С. 656-661.
8. Qobilov X. N. AKTYORLIK MAHORATI VA REJISSURA MASALALARI //Oriental Art and Culture. – 2023. – Т. 4. – №. 5. – С. 251-255.
9. Karayeva F. REJISSYOR VA AKTYOR HAMKORLIGI //Interpretation and researches. – 2024. – Т. 2. – №. 19. – С. 18-22.
10. Abdullayeva M. Dramatik teatr va kinoda aktyorlik mahorati //Tafakkur qanoti" nashriyoti Toshkent-2014. – 2011.
11. Тангриева Д. КИНОДА САНЪАТИДА АКТЁРЛИК МАНОРАТИ //Oriental Art and Culture. – 2021. – №. 6. – С. 71-78.

РЕЗЮМЕ. Мақола Ўзбекистонда хизмат кўрсатган маданият ходими, профессор, меҳрибон устоз Абдураҳим Сайфиддиновнинг хотирасига бағишланади. А.Сайфиддиновнинг кўп йиллик саҳна нутқи ва актёрлик маҳорати кафедраларидаги педагогик фаолияти, илмий ва ижодий изланишларига алоҳида эътибор қаратилади.

РЕЗЮМЕ. Статья посвящена памяти Заслуженного работника культуры Узбекистана, профессора, доброго наставника Абдурахима Сайфиддинова. Особое внимание уделяется его многолетней педагогической деятельности на кафедрах сценической речи и актёрского мастерства, а также его научным и творческим изысканиям.

SUMMARY. The article is dedicated to the memory of Abdurahim Sayfiddinov, Honored Cultural Worker of Uzbekistan, professor, and caring mentor. Special attention is given to his many years of pedagogical work in the departments of stage speech and acting, as well as to his scientific and creative research.

ANIMATSION FILM ISHLAB CHIQARISH JARAYONIDA BAKALAVR KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY ASOSLARI

Hojimatov Doston Hamidulla o‘g‘li – *katta o‘qituvchi*
O‘zDSMI, “Kino, televideniye va rejissyorligi” kafedrasi mudiri v.b.

Tayanch so‘zlar: animatsion kino, bakalavriyat ta’limi, kompetensiya modeli, kadrma-kadr animatsiya, timing, vizual ritm, dramaturgiya, 2D, 3D, stop- motion, pedagogik metodologiya.

Ключевые слова: анимационное кино, бакалавриат, модель компетенций, покадровая анимация, тайминг, визуальный ритм, драматургия, 2D, 3D, stop-motion, педагогическая методология.

Keywords: animation film, undergraduate education, competency model, frame-by-frame animation, timing, visual rhythm, dramaturgy, 2D, 3D, stop-motion, pedagogical methodology.

Kirish. Animatsion kino rejissurasi zamonaviy kinematografiyada o‘ziga xos metodologik va estetik pozitsiyaga ega bo‘lib, u real voqelikdan farqli o‘laroq sun’iy yaratilgan vizual muhit orqali hikoya va dramaturgiyani ifodalaydi.

Ushbu yo‘nalish 2D, 3D, stop-motion va raqamli animatsiya kabi texnologik platformalarda kadrma- kadr vizual konstruksiyani yaratishga qaratilgan bo‘lib, talabalarning professional kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Animatsion filmning ishlab chiqarish jarayoni – bu nafaqat texnik va texnologik ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi, balki kreativ qarorlar, vizual estetika va dramaturgik tuzilmani kompleks